

**XVI ASRDA AMIR TEMUR HAYOTI VA DAVLATCHILIK FAOLIYATINING  
FRANSIYADA O'RGANILISHI**

Israilov Nodir Rahimjonovich

Farg'ona davlat universiteti tayanch-doktoranti

**Annotatsiya**

Ushbu maqola XVI asrda Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining Fransiyada o'rganilishi masalasiga bag'ishlangan. Unda Sohibqiron tarixini Fransiyada o'ringanishga sabab bo'lgan omillar ana shu davr siyosiy muhitini o'rgangan holda yoritilgan. Jean Bodin, Lui Le Rua kabi fransuz tarixshunoslari tadqiqotlarida Amir Temur shaxsi va davlat boshqaruviga oid ma'lumotlarga munosabat bildirilgan.

**Tayanch so'zlar va iboralar:** Fransiya, Amir Temur, Fransisk I, Fransuz-USmonli ittifoqi, College de France, universalizm, Jean Bodin, Lui Le Rua.

Amir Temur va temuriylar davri davlatchilik tizimida transformatsion jarayonlarni yuzaga keltirgan omillarni o'rganish va ularni amaliyotga tadbiiq etish maqsadida Yevropa sharqshunoslari Sohibqiron tarixi tadqiq etishni XV asrdan boshlashgan. Amir Temur tomonidan davlat boshqaruvi tizimiga kiritilgan yangilik, harbiy sohadagi islohotlar, iqtisodiy va ijtimoiy tizimdagi yutuqlarni o'rganish G'arbiy Yevropa hukmdor doiralarining kun tartibidagi masalalaridan biri bo'lganligi ana shu davr g'arb manbalarida ham qayd etib o'tilgan [2:162-165; 5:201-232]. Rim papalari va Yevropa qirollari o'rtasida absolyut boshqaruvga erishish istagi, XVI asrdan boshlab G'arbiy Yevropa sharqshunosligida xususan, Fransiyada ham moziyning buyuk hukmdorlari faoliyatini o'rganishni yangi bosqichga olib chiqdi.

XV asrning ikkinchi yarmida fransuzlarning Italiyaga bostirib kirishi, XVI asrdan boshlab Fransiyada Uyg'onish davri madaniyatini rivojlanishiga asosiy sabablardan biri bo'ldi. Qirol Fransisk I (1515-1547) davridan boshlab mamlakatda aholi savodxonligini o'stirish masalasiga alohida e'tibor berildi. Bunga, XVI asr boshlarida mamlakatda avj olgan diniy nizolar, fransuz qirolining mutlaq boshqaruvga intilishi hamda Gabsburg monarxiyasining Fransiyaga ta'sirini misol qilib keltirishimiz mumkindir.

Fransiya XVI asrga o'zining hududiy birlashuvi yakunlagan holda kirib kelgan. Burgundiya gersogligi, Provans va Bretan grafliklari qirollik tarkibiga qo'shib olingandan so'ng aholi soni jihatdan G'arbiy Yevropadagi eng katta davlatga aylanib, mamlakat aholis 15 mln kishiga yetdi [1:118]. Mazkur masalalarni to'g'ri anglagan holda Fransiyada lotin tili monopoliyasini yo'q qilish maqsadida qirol Fransisk I 1530-yilda fransuz tilini milliy til deb e'lon qilgan [6]. Shuningdek, Fransiyada Rim papasining ta'sirini kuchsizlantirish hamda tashqi siyosatda Osiyo davlatlari bilan hamkorlik qilish maqsadida Fransiya qirol asosiy e'tiborini kadrlar tayyorlash masalasiga qaratgan. Shu nuqtai nazardan Fransisk I 1530-yilda qirollik kolleji (College de France) tashkil etdi [6]. Mazkur dargohda ana shu davr siyosiy muhitidan kelib chiqqan holda moziyning hamda zamonasining buyuk hukmdorlari faoliyati tarixi o'rganish alohida e'tibor qaratilgan.

1520-yilda Karl V ning Muqaddas Rim imperatori etib saylanishi, Fransiya tashqi siyosatda navbatdagi muammoga aylangan. Gabsburglar sulolasiga tayangan holda Karl V G'arbiy Yevropada Fransiyani geografik jihatdan absolyut boshqaruvi bilan o'rab olishga intilgan. Muqaddas Rim imperatorining ta'sir doirasi Yaqin Sharq mintaqasiga ham yetib borgan bo'lib, bundan Usmonlilar imperiyasi ham aziyat cheka boshlagan. Shuningdek, XVI asrning 30-yillariga kelib Fransiya Italiya munosabatlarning keskinlashuvi, qirol Fransisk I ning Usmonli imperiyasi sultoni Sulaymon I bilan "Fransuz-Usmonli"<sup>1</sup> ittifoqini tuzishga olib keldi. Mazkur diplomatik kelishuvdan o'z navbatida Usmonlilar imperiyasi ham manfaatdor bo'lib, Shimoliy Afrika va Gabsburglar imperiyasi masalasida Fransiyaning yordamiga tayanar edi. Xristian va musulmon yurt vakillarining birlashuvi Fransiyada jiddiy tanqidlarga uchragan. Biroq ikki davlat o'rtasida birlashgan harbiy ekspeditsiyalardagi muvaffaqiyatlar davlatlarning harbiy hamda iqtisodiy sohalarini o'sishiga sabab bo'lgan. Elchilar almashinuvining jadallashishi esa Fransiyada Sharq tillari va madaniyatini tadqiq etishni qirol homiyligi va nazoratiga o'tishiga olib kelgan. Natijada XVI asr o'rtalariga kelib qirollik kolleji arab tilini o'rganish yo'lga qo'yilgan.

Fransiyada Sharq qo'lyozmalarini to'plash va o'rganish 1536-yilda Jan de la Foret boshchiligidagi fransuz elchilarining Konstantinopolga yuborilishi natijasida alohida bosqichga chiqqan. Mazkur diplomatik missiya tarkibida tarjimonlik vazifasini bajaragan Giyom Postelga qirollik kutubxonasi uchun qiziqarli qo'yozmalarni to'plash vazifasi ham yuklatilgan. Fransuz sharqshunosi manbalarni izlash bilan birgalikda Usmonlilar imperiyasidagi ijtimoiy hayotni o'rgangan. Fransiyada katoliklar va protestantlar o'rtasida kurash kechayotgan bir davrda Kichik Osiyoda nasroniylar, musulmonlar va yahudiylarning bir hukmronlik ostida, uyg'unlikda, istiqomat qilayotganliklarini kuzatgan Giyom Postel qarashlarida "universalizm" tushunchasi paydo bo'lgan. Dastlab, XVI asrning birinchi yarmida mazkur g'oya Fransiyada yuqori natijaga erishmagan bo'lsa-da, din urushlari<sup>2</sup> davrida universalizm tushunchasi jamiyatga yetkazib berish olimlarning asosiy vazifalaridan biriga aylangan.

Fransiyada diniy nizolar avjiga chiqqan davrda universalizm g'oyasini jamiyatga targ'ib qilishda Jan Bodin (1530-1596) ning xizmatlari kattadir. Fransuz huquqshunosi mazkur masalani o'zlashtirishda moziyning buyuk hukmdorlari davlatchilik faoliyatini izchil tahlil etgan. Shu tufayli 1576-yilda chop ettirgan Les "Six livres de la République" (Respublikaning olti kitobi) [3] asarida universalizm, suverentitet, ommaviy huquq masalalarini keng yoritib bergan. Mazkur asar Jan Bodin faoliyati davomida olib borgan tadqiqotlarining eng muhimi hisoblanib, mamlakatda katta shon-shuhrat keltirgan. Tadqiqotning ikkinchi kitob V bobida Solon qonuni, Yuliy Sezar va Neron kabi Rim imperatorlari faoliyatida zolimlik masalasi, Gerkules afsonasining ahamiyatini haqida mulohaza yuritish bilan birgalikda, Amir Temur va Sulton Boyazid munosabatlari haqida so'z yuritilgan [3:253-255]. Tadqiqotda Sohibqironning Usmonli turklarga nisbatan olib borgan siyosatini to'g'ri tahlil etish zarurligi, adolatni ta'minlash maqsadida Amir Temur tomonidan Usmonlilar saltanati harbiy qudratining sindirilishi,

<sup>1</sup>Franko-Usmonli ittifoqi – 1536-yilda Fransiya qiroli Frensis I hamda Usmonli imperiyasi sultoni Sulaymon I o'rtasida tuzilgan bo'lib, G'arbiy Yevropa va Yaqin Sharq mintaqasida gabsburglar sulolasi boshqaruvini tugatish asosiy maqsad etib belgilangan. Mazkur ittifoq ikki yarim asr davom etgan bo'lib, XIX asr boshlarida o'z kuchini yo'qotgan.

<sup>2</sup>1562-1598-yillarda Fransiyada katoliklar va protestantlar o'rtasidagi fuqarolar urushi.

Konstantinopolning Sulton Boyazid bosqinchilik siyosatidan qutqarilishiga sabab bo'lganligi ta'kidlanadi. [3:255]. Shuningdek, mazkur tadqiqotdan Amir Temurning hukmronligi ostida yashagan turli millatlarga nisbatan olib borgan diniy bag'rikenglik siyosati masalasiga ham e'tibor qaratilgan.

Fransiyada XVI asrda Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati keng tadqiq etgan sharqshunos Lui Le Ruadir. Fransuz tarixshunosi tomonidan 1576-yilda chop ettirilgan "De la vicissitude ou variete des choses en l'univers, et concurrence des armes et des lettres par les premieres" (Olamdagi narsalarning turlligi va o'zgaruvchilik to'g'risida) asari [4] Fransiyadagi siyosiy, diniy inqirozlar yuz bergan davrda nashr etilganligini inobatga olsak, unda sharqshunos fransuz hukumati va xalqiga o'tmishning bir nechta nomdor hukmdorlari faoliyatini qiyosiy o'rgangan holda, Fransiya taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan g'oyalarni andoza sifatida qo'llash mumkinligiga to'xtalgan. Misol uchun muallif, XV asr tarixini talqin etishni Sohibqiron davrini yoritish bilan boshlash kerakligini ta'kidlagan [4:97]. Asarda Nin, Sesostris, Kir II, Doro I, Aleksandr Makedonskiy, Arshak, Gannibal, Yuliz Sezar, Konstantin, Atilla, Buyuk Karl kabi hukmdorlar qatorida Amir Temur faoliyati haqida ham ilmiy ahamiyati yuqori fikrlar bayon etilgan. Masalan, Sohibqironning "Yetti yillik" yurishlari dinamikasidan o'rin olgan Misr uchun yurishni muallif geografik jihatdan ham alohida o'rgangan. Sohibqiron tomonidan Suriya hududlari zabt etilgach, to'qnashuvda omon qolgan ko'plab fuqarolar Shimoliy Afrika hududlariga qochganligi, biroq, Amir Temur Misr va Sudan hududlariga yurishni davom ettira olmaganligiga qumli cho'llar va suv tanqisligi muammosi sabab bo'lganligini ta'kidlaganligi e'tiborga molikdir [4:97-a]. Chunki mazkur yurish yoritilgan Amir Temur va temuriylar davri manbalarida bunday ma'lumotlar qayd etilmagan Shuningdek, Lui Le Rua bugungi kunda ham tarix fani ixlosmandlari o'rtasida ko'plab baxs-munozaralarga sabab bo'layotgan Amir Temurning Kavkaz yurishlaridan o'rin olgan Moskva shahri zabt etilmaganligi masalasi haqida fikr bildirib, quyidagilarni bayon etgan: "Moskvaliklar Rha<sup>3</sup> daryosi bo'yida tatarlardan ajralib, unga (Amir Temur – ta'kid bizniki, N.I) o'lpon to'lashdi va [qo'shinga] yangi odamlarni berishdi: mossinoilar, cerekturlar, leykosiriyaliklar<sup>4</sup> va Kaspiy dengizi va Tanais<sup>5</sup> o'rtasidagi barcha xalqlar unga ochiqchasiga taslim bo'lishdi" [4:97-a]. Muallifning ushbu fikrlaridan shuni ta'kidlash o'rinliki, Amir Temur uchun Moskva shahri iqtisodiy va siyosiy jihatdan mazkur davrda muhim ahamiyat kasb etmagan. Shuningdek, Lui Le Rua temuriylar davri geografiyasiga oid ma'lumotlarni bayon etishda nafaqat arab-fors manbalaridan balki, antik davr mualliflari asarlaridan ham foydalangan. Chunki XVI asrda Temur va temuriylar davri manbalari fransuz tiliga tarjima etilmagan hamda yevropaliklarga O'rta Osiyo haqidagi ma'lumotlar yunon tarixchi-geograflari asarlari orqaligina ma'lum bo'lgan.

Lui Le Rua Amir Temur tarixini Nin, Sesostris, Kir II, Doro I, Aleksandr Makedonskiy, Arshak, Gannibal, Yuliy Sezar, Kostantin, Atilla, Buyuk Karl kabi o'z davrining buyuk hukmdorlari faoliyatini bilan taqqoslagan holda tahlil etgan. Unda sharqshunos, Sohibqiron Nin kabi shoh o'g'li bo'lmasa-da, butun Osiyoda imperiyaga asos solganligi, Nin baqtriyaliklar podshosi Zardushtni mag'lub etgan bo'lsa, Amir Temur turklar sardori Boyazidni taslim etganini

<sup>3</sup>Rha daryosi – Volga daryosining sikifcha nomlanishi.

<sup>4</sup>Leykosiriyaliklar – Kappadokiya aholisining qadimgi nomi

<sup>5</sup>Tanais – Don daryosining yunoncha nomlanishi

ta'kidlaydi [4:108-a]. Kir II va Amir Temurning o'xshash jihatlari ularning hukmdor oilasidan emas, cho'pon oilasidan bo'lganligi, biroq ikki hukmdor ham ulkan hududlarni zabt etgani, forslar shohiga nisbatan Sohibqiron kam sonli qo'shin bilan hatto skiflar yashagan hududlarni ham zabt etganiga e'tibor qaratadi [4:108-a]. Shuningdek, muallif, o'tmishdagi hukmdorlarning ulkan g'alabalariga ularning diniy sohaga bo'lgan ijobiy e'tiborlar sabab bo'lganligini ta'kidlaydi. Masalan, Atilla diniy irodasi tufayli va Rim papasining iltimosiga ko'ra, Rimga bormagan bo'lsa, Amir Temur ham ibodatxonalarni buzilishiga yo'l qo'ymagani hamda Arabistonni payg'ambari tug'ilgan joy ekanligidan kelib chiqib u yerga hujum qilmaganligi masalasiga alohida urg'u bergan [4:109]. Lui Le Ruaning mazkur tahlilidan shuni anglash mumkinki, XVI asrning ikkinchi yarmida Fransiyada davom etayotgan fuqarolar urushini to'xtatishda Sohibqiron yoki moziyning buyuk hukmdorlari faoliyatidan o'rin olgan diniy sohaga bo'lgan munosabatni o'rganish hamda andoza sifatida jamiyatga qo'llash kerakligiga murojaat etilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, XVI asrda Fransiyada Amir Temur faoliyatini o'rganish mazkur asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bunga birinchidan, XVI asr birinchi yarmida G'arbiy Yevropada gabsburglar ta'sirining kuchayishi Fransiya va Usmonlilar Imperiyasi o'rtasida ittifoq tuzilishiga olib kelgan. Fransuz elchilarining Konstantinopolga bir necha marotaba amalga oshirishgan diplomatik missiyalari natijasida Fransiyada Sharq qo'lyozmalarini alohida o'rganish istagini keltirib chiqargan. Ikkinchidan, qirol Frensis I tomonidan qirollik kollejining tashkil etilishi esa, Sharq davlatlari tarixini hamda arab tillarini ham o'rganilishiga zamin yaratgan. Uchinchidan, Rim papalari va fransuz qirollari o'rtasida mutlaq boshqaruv uchun kechgan kurashlar natijasida, moziyning buyuk hukmdorlari faoliyatini o'rganishni qirollar tomonidan o'z homiyliklariga olinishi sabab bo'lgan. To'rtinchidan, Fransiyada uzoq yillar davom etgan diniy mojarolarni to'xtatishga hayrihoh bo'lgan qatlam vakillarining sayi-harakatlari sabab bo'lgan.

### Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Эргашев III. Жаҳон тарихи (Янги давр 1-қисм. XVI – XVIII асрлар). – Т.: «Ўзбекистон», 2013 – 529 б.
2. Contenant les Mémoires du bon Messiere Jean Le Maingre, dit Boucicaut, Maréchal de France. – Collection universelle des mémoires particuliers, relatifs a l'histoire de France. Tome VI. – Paris: Rue d'Anjou – Dauphine, 1785. – 476 p.
3. I. Bodin Angeuin. Les Six livres de la République. – Paris: Chez Jacques du Puys, Libraire Iuré, à la Samaritaine, 1577 – 759 p.
4. Louis Le Roy. De la vicissitude ou variete des choses en l'univers, et concurrence des armes et des lettres par les premieres et plus illustres nations du monde, depuis le temps où àcommencé la ciuilité, & memoire humaine iusques à present. – Paris: Chez Pierre l'Huilier, rue S. Jacques à l'Oliuier, 1576 – 116 p.
5. Mignanelli Bertrando. De Vita Tamerlan, trans. W.I.Fischer. A newlatin sourie of Tamerlane. Conquest of Damascus (1400/01). Orient, IX 1956. P. 201-232.
6. [https://en.wikipedia.org/wiki/Francis\\_I\\_of\\_France](https://en.wikipedia.org/wiki/Francis_I_of_France).